



PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING “JINOYAT O’CHOQLARI”  
HISOBLANGAN HUDUDLARDA AMALGA OSHIRISHI LOZIM BO’LGAN CHORA-  
TADBIRLAR HAMDA ULARNING SAMARADORLIGI

Salohiddinov Shohijahon G’ayrat o’g’li

O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3-o’quv kursi 316-guruh  
kursanti

**Annotatsiya :** *Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati faoliyatida dolzarb tadqiqot mavzusi hisoblanadi.”Jinoyat o’choq”lari tushunchasi,mazmun-mohiyati,huquqiy asoslari, huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari amalga oshirishi shart bo’lgan ijtimoiy,huquqiy chora-tadbirlar majmuyi haqida so’z boradi.Kriminogen vaziyat og’ir hududlarga “jinoyat o’choq”larining ta’siri yoritilgan.Har bir hudud profilaktika inspektori kriminologik holatni to’g’ri baholab,obyektiv va subyektiv jihat hamda tomonlarni hisobga olib chora-tadbirlar ishlab chiqishi darkor.*

**Kalit so’zlar:** *Ma’muriy hudud, profilaktika inspektori,”jinoyat o’choqlari” , obyektiv sabablar,subyektiv sabablar, ”mahalla yettiligi”,ijtimoiy profilaktika.*

**Аннотация:** Является актуальным предметом исследования в деятельности службы профилактики правонарушений. Понятие, содержание, правовые основы “очага преступления”, говорят о комплексе социальных, правовых мер, которые обязаны осуществлять инспекторы по профилактике правонарушений. Криминогенная обстановка освещает влияние “очагов преступности” на суровые регионы. Каждый региональный инспектор по профилактике должен правильно оценить криминологическую ситуацию и разработать меры с учетом объективного и субъективного аспектов и сторон.

**Ключевые слова:** Административный район, инспектор по профилактике, “очаги преступности” , объективные причины, субъективные причины, “соседская семерка”, социальная профилактика.

**Annotation:** The concept, content and legal basis of "crime hotbeds", the set of social and legal measures that must be implemented by crime prevention inspectors are discussed in the activity of crime prevention service.The prophylactic inspector has a clear as well as smart understanding own profession.

**Key words :** Administrative area, preventive inspector, "crime foci", objective causes, subjective causes, "neighborhood seven", social prevention.

Hozirgi kunda ijtimoiy borliq hodisalari jadal sur’atlarda rivojlanib bormoqda jumladan texnika texnologiya va inson tafakkuri ushbu o’zgarishlarni boshdan kechirmoqda .Ijtimoiy munosabatlarning ham amaliy shu jumladan bilish va anglash ijtimoiy munosabatlar tizimida eng avvalo ishlab chiqarish munosabatlari farqlanadi.Ijtimoiy munosabatlar mazmuniga ko’ra ,tuzilishi jihatidan ham murakkab hodisa sanaladi.



Jamiyatda shaxs o'z- o'zidan shakllanib qolmaydi.Unga ko'plab tashqi va ichki muhit omillari ta'sir qiladi,jumladan oila,maktab,jamoat joylari,ko'rgan va anglab yetgan ijtimoiy munosabatlari va hokazo.Ushbu ta'sirlar oqibatida u "shaxs" sifatida shakllanadi.Jinoyatchilik va "jinoyat o'choqlari" ijtimoiy jihatdan yaqin tushuncha bo'lsa-da farqlab olish darkor.Jinoyat o'choqlari - bu ma'lum hududda va ma'lum davrda doimiy ravishda takrorlanib sodir etiluvchi jinoyat va huquqbazarliklar,g'ayriijtimoiy qilmishlar yuz beradigan hududlardir.Jinoyat o'choqlari paydo bo'lishi o'z o'zidan emas , hududning demografik vaziyati,istiqomat qiluvchi aholi qatlami,ushbu hududlarda qurilgan obyektlar,doimiy hamda vaqtincha muddatda yashovchi fuqarolar,ushbu hududlarga yaqin obyektlar va yana bir qator omillar zamirida ko'p vaqt mobaynida vujudga keladigan ijtimoiy jamiyatning "og'ir" qatlami hisoblanadi.Hududlarda e'tibor qaratish lozim bo'lgan bir qator sabablarni tasniflab o'rgangan maqsadga muvofiqdir,avvalo, hududlarda iqtisodiyot rivojining xususiyatlari (ishlab chiqarish va taqsimot),ijtimoiy munosabatlар sohasidagi rivojlanish xususiyatlari ,ijtimoiy ruhiyat va madaniyatning xususiyatlari turli demografik prinsiplarning buzilishi,jamiyatdagi axloqiy-ruhiy holatlar,aholining ruhiy-axloqiy ma'naviy holati va bir qator omillar bilan bog'liq murakkab jarayondir."Jinoyat 'occoq"lari yuzaga kelishi uchun hududdagi sharoit va sabablar turtki bo'lib, asta -sekinlik bilan kasallik kabi yashirin holatda belgilari ba'zan namoyon bo'ladi,agar hududlarda nazoratsizlik hamda boshboshdoqlik avj olsa,jinoyatchilik ham ko'payib , o'zining salbiy ko'rinishlarini namoyon qiladi.Avvalo.ushbu jinoyat ko'p sodir bo'ladigan ma'muriy hududlarda huquqbazarlik ko'rinishida kichik -kichik elementlar shaklida namoyon bo'ladi,hamda yuzaga keladi.Jinoyat ham aynan shunday kichik zarralar tufayli og'ir oqibatlar keltirib chiqaradi.Ijtimoiy munosabatlар almashinuvi jamiyatda bir qator sababiy bog'lanishlar bilan bog'liq masalan,bir hodisa( sabab) muayyan shart-sharoitlar mavjud bo'lganida boshqa hodisa (oqibatni) vujudga keltiradi.

Hodisa (sharoit) sababni shakllantiradi yoki uning harakati uchun sharoit yaratadi.

Hodisalarning o'zaro aloqadorligi,ya'ni ular dan biridagi o'zgarishlar tufayli ikkinchisida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi.Kriminalogik determinantlar bir biriga uzviy bog'liq bo'lib doimiy ravishda rivojlanib boradi.

Jinoyat o'choqlari yuzaga kelishi ma'muriy hududlarda yashovchi aholi demografik holati,aholining ijtimoiy hayot darajasi, faoliyat ko'rsatuvchi mutasaddi hokimiyyat organlari faoliyati,huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yetarli darajada shakllanmaganligi ta'sir ko'rsatadi.Islohotlar natijasida bugungi kunda huquqbazarliklar profilaktikasi xodimlari faoliyatini yanada yaxshilash borasida qabul qilingan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar samarasi tufayli huquqbazarlik va jinoyatlar sezilarli darajada kamayib bormoqda,ushbu qonun hujjatlari ko'makida hududlarda profilaktika inspektorlari jinoyat o'choqlariga barham berishda qator chora-tadbirlar ishlab chiqib,jinoyatchilikni barvaqt oldini olishga hamda jinoyatlarni aniqlashda samarali natijalarga erishmoqdalar.

Ma'muriy hududlarda mahalla tuman shaharlarda huquqbazarliklar profilaktikasi inspektorlari o'z vazifalariga alohida e'tibor va mas'uliyat bilan yondoshib, huquqbazarliklar,noqonuniy, axloqqa zid bo'lgan xatti-harakatlarni sinchkovlik bilan kuzatib



bartaraf etmoqliklari hamda ushbu huquqbazarliklarni takroran sodir etilishi hamda hududlarda istiqomat qiluvchi aholi jabrlanib qolishini oldini olib barcha kuch va vositalardan oqilona foydalanib amalga oshirishlari lozim. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ichki ishlar organlari faoliyati xususan huquqbazarliklar profilaktikasi xizmati sohasiga doir amalga oshirilayotgan islohotlar jinoyatlarning oldini olishda ularning barvaqt profilaktikasini tashkil etishda,jinoyatchilikni bartaraf etishda muhim o'rinn tutmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ma'muriy hududlarda huquqbazarliklar profilaktikasi inspektorlari faoliyat jarayonlarining samarali tashkil etishda muhim o'rinn tutmoqda va amaliy faoliyat jarayonlarda o'z samarasini ko'rsatmoqda. Jinoyat o'choqlari krimonogen vaziyatni og'irlashtiruvchi ijtimoiy xavfli hudud, uning oldini olishda huquqbazarliklar profilaktikasi xizmati xodimlari profilaktika faoliyatining "Huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyati to'g'risida"gi qonuning 23-30-35-44- moddalarida ko'rsatilgan quyidagi turlari:

- umumi;
- maxsus;
- yakka;

-viktimologik kabi turlaridan unumli va oqilona foydalanib,huquqbazarlik hamda jinoyatlarning oldini olishlari shart.<sup>33</sup> Huquqbazarliklar profilaktikasi inspektorlari faoliyat yurituvchi hududlarda har qanday huquqbazarlik va jinoyatlar mahallarda "Mahalla oldida jinoyat muhokamalari" tashkil etiladi. Mahalla faollari aholi oldida sodir etilgan huquqbazarlik jinoyatlar sabablari.ga'yriijtimoiy xulq-atvorli fuqaro oilaviy ahvoli,jinoyat sodir etilishi yuzaga kelgan shart-sharoitlar ,uning bu og'ir noqonuniy qilmish sodir etishiga ko'maklashgan shaxslar umuman jinoyatning tafsilotlari o'rganilib, tahlil qilinadi.Mahalla fuqarolarining jinoyat sodir etgan shaxsga o'zlarining ijtimoiy fikrlarini munosabatlarini bildiradilar.Jinoyatning oldini olish yuzasidan fikr bildiradilar.Ushbu jinoyat muhokamalarida mahalla fuqarolarini orasidan shaxsni to'g'ri yo'lga qaytarishda jamoat himoyachisi hamda uning xulq-atvorini tuzatishda kafil tayinlanadi,ushbu muhokamalar natijasi o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.Muhokama natijalari yuzasidan so'rovnomalar olinganda aksariyat jinoyat sodir etgan fuqarolar jinoyatni ehtiyyotsizlik,moddiy jihatdan yetishmovchilik,huquqiy bilimlar yetarli emasligi oqibatida qo'shilib qolganlarini statistik ma'lumotlar ko'rsatmoqda.Mahalla fuqarolarini doimiy ogoh etib,huquqbazarliklar profilaktikasi xodimlari targ'ibot va tashviqot ishlarini to'g'ri tashkil etmoqliklari albatta o'z samaralarini bosqichma bosqich ko'rsatmoqda.

Profilaktika inspektorlarini huquqiy targ'ibot hamda tashviqot jarayonlarini amalga oshirar ekanlar , ogohlilikka doimo ahoplini undamoqliklari shart, har bir mahalla hududini huquqbazarliklar va jinoyatlardan tozalashda, befarqlik , loqaydlik holatlarini barham berishga alohida e'tibor berishlar shart, fuqarolarning tinch osoyishtaligini ta'minlashda ogohlilik bugungi davr talabidir Huquqbazarliklar profilaktikasi xodimlari aynan hududlarda jinoyat o'choqlarining oldini olish maqsadida "Fuqarobay" hamda "Mahallabay" faoliyat olib bormoqdalar ushbu yo'nalish sohasida mahalla hududlarida "notinch oila" larga,istiqomat

<sup>33</sup> "Huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyati to'g'risida"gi qonun .O'RQ-371-son.



qiluvchi ijtimoiy himoyaga muhtoj boquvchisini yo'qotgan to'liqsiz oilalarga,uyushmagan yoshlar salmog'iga,voyaga yetmagan yoshlarning ijtimoiy,ma'naviy tarbiyasiga,yashash sharoitlari har kuni huquqbazarliklar profilaktikasi inspektorlari,mahalla raislari,hokim yordamchilari,yoshlar yetakchilari,mahalla xotin - qizlar faollari,ijtimoiy xodimlar,soliq idoralari xodimlari bilan birgalikda har bir xonadonda yashovchi turli ijtimoiy,huquqiy,tibbiy,psixologik ko'makka muhtoj har bir fuqaro hayotining farovonligini ta'minlash borasida muhim amaliy yordamlar berilib,ularning yashashlari,oilaviy farovonliklarini ta'minlashda samarali tizim tashkil etildi.<sup>34</sup>

Har bir hududning ijtimoiy,iqtisodiy,diniy ,etnik tuzilishi hamda joylashuvi turlicha har bir huquqbazarliklar profilaktikasi inspektorlari aynan har bir jihatfa alohida e'tibor bilan ma'lumotga ega bo'lib , aholi tinchligi, osoyishtaligi,farovon hayotinmi ta'minlashda bugungi vaziyatda hushyor holatda o'z vazifasiga sidqidildan kirishib,mas'uliyat bilan qarab xizmat vazifasini adolat bilan tashkil etishi shart.

Jinoyat o'choqlarini oldini olishda quyidagi chora- tadbirlar muhim rol o'yaydi;

1.Ma'muriy hududning profilaktik hisobini ko'zdan kechirish,mayjud kriminogen vaziyatni tahlil qilish ;

2.Sodir etilgan huquqbazarliklarning jinoyatlaring umumiy statistikasi va huquqbazarlik jinoyatlarning turlari bo'yicha alohida statistik ma'lumotlar bazasini mahalla kesimida yuritish;

3.Hududlarda istiqomat qiluvchi aholi tomonidan berilgan murojaatlarni qonuniy ekanligi o'z vaqtida ko'rilgan ekanligini to'g'ri vaadolatli amalga oshirish:

4.Huquqbazarlik profilaktikasi faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarning faoliyatini o'rganish hamda tahlil qilish ;

5.Pofilaktik hisobda turgan shaxslar toifasiga alohida e'tibor qaratib, ularning g'ayriijtimoiy xulq-atvorini tuzatish choralarini ko'rish;

6.Hududda istiqomat qiluvchi aholining uyushmagan yoshlar ishlari bilan ularning ijtimoiy holatini yaxshilash borasida kasb-hunar o'quv yurtlariga joylashtirish;

7.Voyaga yetmagan yoshlarning o'rtasida ularning huquqiy-siyosiy madaniyatini oshirish maqsadida ota-onalari bilan mahalla va mакtablar bilan hamkorlikda davra suhbatlarini o'tkazish;

8.Mahalla hududlarda notinch oilalar bilan ishslash sohasini tizimli amalga oshirish hamda oila ajrimlarini oldini olish yuzasidan targ'ibotni tashkil etish;

9.Hududlarda tibbiy muomalajaga muhtoj ammo moliyaviy jihatdan yetarli ta'minotga ega bo'lмагan yolg'iz yashovchi oilalarga tegishli mutasaddi hokimiyat organlari bilan birgalikda tibbiy ijtimoiy ko'mak ko'rsatish;

10.Jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan fuqarolarning ijtimoiy hayotlarini yaxshilash maqsadida ularni ish bilan ta'minlash hamda jamiyat hayotiga moslashtirishda huquqiy iqtisodiy jihatdan ko'maklashish hamda ularning jamiyatda o'z o'rınlarini topishga yordamlashish;

<sup>34</sup> Huquqbazarliklar profilaktikasi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar" -.Aliyev Shuhrat Xasanovich-Buxoro viloyati IIB boshlig'i – (Phd).



11. Chet elda xorijda ishlovchi fuqarolarning statistik ma'lumotlarini yuritish hududda doimiy ro'yxatda turuvchi, vaqtincha hamda ro'yxatga olinmagan fuqarolar ,fuqarolari bo'lмаган shaxslar, chet el fuqarolari ro'yxatini yuritish ,xorijda ishlovchi fuqarolarning oila a'zolari bilan doimiy muloqot olib borish ;

12. Ma'muriy hududlarda kirish va chiqish yo'llariga hududga kirib yoki chiqib ketayotgan aholini nazoratga olish , turli nohush holatlar , yuz berayotgan voqelarni to'g'ri aniqlik kiritish yuzasidan kameralar o'rnatish va ushbu vositalar yordamida hududni doimiy nazoratini amalga oshirish;

13. Oilada zo'ravonlik sodir etishga moyil, spirtli ichimliklarni muntazam ichib boruvchi , g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega shaxslarni aniqlash , ularni ijtimoiy sog'lom hayotga qaytarish , tibbiy davolanishga yuborish;

14. Ommaviy axborot vositalari orqali reklama qilinayotgan turli tez boylik orttirish maqsadida tashkil etiladigan firibgarlik "o'yin"lar, uy sotib olishda qonun bilan belgilangan qoidalarni aylanib o'tishga harakat qilishning zararli oqibatlari yuzasidan ma'ruzalar,davra suhbatlari, matbuot , radio, televidenie, ijtimoiy tarmoqning huquqiy saytlarida kerakli yuridik maslahatlar hamda ma'lumotlar berib borish ;

Xulosa o'rnida ta'kidlab o'tish lozimki, ushbu chora -tadbirlar orqali profilaktikaning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan viktimologik jihatlarga diqqat bilan yondoshmoqlik darkor. Viktimologik profilaktika ayni davrning ijtimoiy zarurati sifatida e'tirof etiladi. Aholining farovon hayoti, oilaviy totuvligini ta'minlashda yuqori ko'rsatilgan chora-tadbirlarning amaliy faoliyat jarayonida samarali tashkil etishda huquqbazarliklar profilaktikasi xizmati faoliyatining qanchalik muhim va zarurligini hamda ahamiyatini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Huquqbazarliklar profilaktikasi inspektorlari eng avvalo, jinoyat o'choqlarini oldini olishda jamiyatda huquqiy ong hamda madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratmoqliklari darkor. Jamiyatda qonun ustuvorligi hamda qonuniylikni mustahkamlashda huquqiy targ'ibot hamda profilaktikaning turlari alohida ahamiyatlidir. Mamlakatda qonun ustuvorligini ularning bir xilda ijrosini ta'minlash ichki ishlar organlari faoliyatining jumladan huquqbazarliklar profilaktikasi xizmatining muhim vazifalaridan biridir. Qonun ustuvorligi esa demokratik jamiyatning taraqqiyot garovidir. Bugungi kunda huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyatini tashkil etishda olib borilayotgan islohotlar o'z samarasini yaqqol namoyon etmoqda , jinoyat o'choqlarini oldini olishda profilaktika faoliyatining barcha turlariga xos bo'lgan chora hamda tadbirlar o'z o'rniga ega muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi ayni vaqtda huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyati jamiyatda o'zining sezilarli natijalarini ,samaradorligini namoyish etmoqda, jinoyat o'choqlarining paydo bo'lishini oldini olishda ma'muriy hududlarda profilaktika inspektorlari tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar muhim va dolzarb ahamiyatga ega . Aynan ushbu sohadagi bugungi islohotlarning tashabbuskori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hisoblanadi,jumladan Prezidentimiz ichki ishlar organlarning kasb bayrami munosabati bilan yo'llagan tabrigida : " Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo'lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan



eng samarali tizim bu ichki ishlar sohasi , desak, ayni haqiqat bo'ladi” deb, ta'kidlab ichki ishlar sohasining jamiyat hayoti uchun muhim tuzilmalardan biri ekanligini ko'rsatib o'tgan.<sup>35</sup>

Huquqbazarliklar profilaktikasi inspektorlari tinchlik hamda osoyishtalik posbonlari sifatida o'z vazifalarini fidoyilik bilan ado etishlarida yurtboshimiz tomonidan yuqorida ta'kidlab o'tilgan yuksak baho yanada samarali ishlashga undaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Murojaat vaqtı : 22.10.2024-yil.
- 2."Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi 407-son-Qonun. Murojaat vaqtı : 22.10.2024-yil.
- 3."Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi 371-son-Qonun. Murojaat vaqtı : 22.10.2024-yil.

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari tog'risidagi PF-27 - son Farmoniga 4-ilova. Murojaat vaqtı : 22.10.2024-yil.

---

<sup>35</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yilning 12-fevral kuni Ichki ishlar vazirligi Hay'atining kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan yig'ilishda so'zlagan nutqi// URL: <http://www.lex.uz>.